SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.09.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

AITBAYEVA KURBANGUL KURBANBAYEVNA

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI AYRIM BALIQCHILIK XO‘JALIKLARINING ALGOFLORASI (taksonomiya, floristika, ekologiya)

03.00.05-Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 581.59:526.53:582.675.3

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on biological sciences**

Aitbayeva Kurbangul Kurbanbayevna
Qoraqalpog‘iston Respublikasi ayrim baliqchilik xo‘jaliklarining
algoflorasi (taksonomiya, floristika, ekologiya) 3

Айтбаева Курбангул Курбанбаевна
Альгофлора некоторых рыбоводных хозяйств Республики
Каракалпакстан (таксономия, флористика, экология) 21

Aitbayeva Kurbangul Kurbanbayevna
Algal flora of some fish farms in the Republic of
Karakalpakstan (taxonomy, floristics, ecology)..... 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 45

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.09.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

AITBAYEVA KURBANGUL KURBANBAYEVNA

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI AYRIM BALIQCHILIK XO‘JALIKLARINING ALGOFLORASI (taksonomiya, floristika, ekologiya)

03.00.05-Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/B1689 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tashpulatov Yigitali Shavkatillaevich** biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Xaydarov Xislat Kudratovich** biologiya fanlari doktori, professor
	Buriyev Sulaymon biologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.B.09.10 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “ 3 ” dekabr kuni soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti binosi 2-qavat majlislar zali. Tel.: (+99866) 240-38-47, faks (+99866) 239-11-51, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (157 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 240-38-47.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “ 24 ” noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “ 24 ” noyabr № 13 raqamli reystr bayonnomasi).

T.F. Rajabov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d.

A.N. Xujanov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d. (PhD), dotsent

A.R. Jabborov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda miqiyosida baliq mahsulotlarini tayyorlashda akvakulturaning salmog‘i yil sayin ortib bormoqda. Iqlim o‘zgarishlari sharoitida sifatli baliq mahsulotlarini tayyorlash, hovuzlarning ekologik holatini monitoring qilish hamda hudud ekosistemalariga ta’sirini kamaytirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, ekologik yuk yuqori bo‘lgan mintaqalardagi baliqchilik hovuzlari suvo‘tlar florasini tadqiq etish, algoflora tarkibidagi taksonlarning biologik xilma-xilligini aniqlash, ekologik xususiyatlarini tahlil qilish hamda antropogen ta’sirni yumshatish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim masalalardan hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishlari hamda antropogen yuk yuqoriligicha saqlanib qolayotgan hududlardagi akvakultura sharoitida boqilayotgan baliqchilik hovuzlari suvo‘tlarining algologik va gidrobiologik tarkibini o‘rganish, hovuzlar suvining sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi ekologik omillar rolini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda algoflora tarkibidagi suvning ekologik holatini monitoring qilishda foydalaniladigan indikator-saprob turlarning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari orqali suv havzasini ekologiya-sanitariya holatini prognoz qilish hamda belgilangan hududdagi suv ekosistemalarini hozirgi holatini aniqlash bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Akvakultura hovuzlaridagi suvo‘tlari tarkibini aniqlash, taksonomik tahlil qilish, har bir suv havzasi algoflorasining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar rolini izohlash, hududlar kesimida hovuzlarning ekologiya sanitariya holatini baholashda indikator-saprob turlarini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish orqali baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish tarmoqlariga joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ekologik yuk yuqoriligi saqlanib qolayotgan hududlardagi akvakultura sharoitidagi baliqchilik hovuzlari suvo‘tlar florasini inventarizatsiya qilish, hududlar kesimida har bir suv havzasi algoflorasining shakllanishiga ekologik va antropogent omillar rolini izohlash, har bir hudud uchun muayyan me’yoriy ko‘rsatkichlarni belgilash va suvning ekologiya-sanitariya holatini mavsumiy monitoring qilish bo‘yicha amaliy natijalarga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son farmoniga muvofiq[1] “O‘zbekiston-2030” strategiyasining “Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish” yo‘nalishi bo‘yicha 69-maqsadda belgilangan “Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta’sirini yumshatish” vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus, Xo‘jayli va Taxiatosh tumanlarida joylashgan baliqchilik xo‘jaliklari algoflorasini batafsil inventarizatsiya qilish, algoflorani taksonomik, floristik va ekologik tahlil qilish, suvo‘tlar florasining shakllanishiga tashqi muhit omillarning rolini asoslash, har bir baliqchlik xo‘jaliklari hovuzlarining ekologiya-sanitariya holatini monitoring qilishda algoflora tarkibidagi indikator-saprob

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

turlarning miqdoriy va sifat koʻrsatkichlarini tahlil qilish orqali baliqchilik hovuzlarining hozirgi holatini baholash boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasining 2017-yil 1-maydagi PQ-2939-son “Baliqchilik tarmogʻini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13- sentabrdagi 719-son “Baliqchilik tarmogʻini kompleks rivojlantirish toʻgʻrisida” gi va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Akvakultura sharoitida baliqchilik hovuzlar algoflorasi, taksonomik, floristik va ekologik xususiyatlari, algofloraning shakllanishiga tashqi muhit va antropogen omillarning rolini baholash hamda algoflora tarkibidagi indikator-saprob turlar orqali suvning ekologiya-sanitariya holatini baholashga oid tadqiqotlar xorijiy olimlardan Burchardt va boshqalar (2006), V.N.Klimyuk (2011), Yu.V.Naumenko (2016) va boshqalar, G.Pradeepkumar (2017), Nese Yilmaza va boshqalar (2017), T.K.Harsha, Rimsha Jamil, Dr.Khalid Abbas, (2020), Dhanalakshmi Jayakumar, Jeevan Pandiyan (2021), Teklay Gebru Tikue (2023), A.R.Zafar (2024), Michael Schagerl, Chun-Chieh Yen (2025), N.M.Lyalyuk, E.G.Makeeva, keyingi yillarda respublikamiz olimlaridan X.Alimjanova (2007), A.Qobulov (2020), D.Qoshanov (2020), J.Sobirov (2020), Sh.Shernazarov (2021), B.Qobulova (2025) va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida keng yoritilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №SBio-03 “Janubi-Gʻarbiy Oʻzbekiston florasining bioxilma-xilligini oʻrganish, innovatsion tadqiqotlar oʻtkazish va ularni muhofaza qilishning biologik asoslarini aniqlash” mavzusidagi rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpogʻistondagi baliqchilik xoʻjaliklari hovuzlari algoflorasini oʻrganish va hovuzlar suvining ekologiya sanitariya holatini monitoring qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qoraqalpogʻiston baliqchilik xoʻjaliklari hovuzlari algoflorasi turlar tarkibini inventarizatsiyalash;

keng koʻlamli taksonomik va floristik tahlillar orqali hovuzlar algofloralarining oʻziga xoslik jihatlarini asoslash;

hovuzlarda algofloraning shakllanish tendensiyalariga ekologik omillar ta’sirini izohlash;

hovuzlar algoflorasining ekologik guruhlarini tahlil qilish orqali ekologik va geografik xususiyatlarini ochib berish;

algoflora tarkibidagi indikator-saprob turlarning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari o‘rganish orqali hovuzlarning mavsumiy ekologiya-sanitariya holatini baholashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi baliqchilik xo‘jaliklari algoflorasi olingan.

Tadqiqotning predmetini Qoraqalpog‘iston Respublikasi baliqchilik xo‘jaliklari algoflorasining taksonomiyasi, floristikasi, ekologiyasi va monitoringi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida mavsumiy marshrutli ekspeditsiya, zamonaviy algologiyada keng foydalanilayotgan *algabase* platformasi, ochiq suv havzalari gidrobiologik tadqiqot uslublari, floristik, tahliliy, statistik, ekologik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus, Xo‘jayli va Taxiatosh tumanlarida 7 ta baliqchilik xo‘jaliklari hovuzlaridan sianofitlarning 45 ta va suvo‘tlarning 192 ta turi aniqlangan;

har bir baliqchilik hovuzlarining to‘yinish manbasi, grunt xususiyatlari, suvining kimyoviy tarkibi va boshqa ekologik sharoitlariga bog‘liq holda algofloraning o‘ziga xos ravishda shakllanish tendensiyasi ochib berilgan;

tahlillar natijasida algoflora tarkibdagi turlar sonining optimal va minimal chegaralariga bevosita ta’sir etuvchi ekologik omillarning me’yoriy ko‘rsatkichlari mintaqaning xususiyatlariga bog‘liqligi asoslangan;

Qoraqalpog‘iston hududida o‘rganilgan baliqchilik hovuzlari algoflorasi tarkibidagi indikator-saprob turlarning sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarini baholash orqali har bir hovuzning mavsumiy ekologiya-sanitariya holati qiyosiy baholangan hamda sabablari izohlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus, Xo‘jayli va Taxiatosh tumanlarida joylashgan jami 7 ta baliqchilik xo‘jaliklari hovuzlarida boqiladigan o‘txo‘r baliq turlari va boshqa baliq chavoqlari uchun asosiy ozuqa hisoblangan fitoplanktonlarning turlar tarkibi, mavsumiy dinamikasi hamda rivojlanishiga ta’sir etuvchi ekologik omillar (tiniqlik, harorat va pH)ning me’yoriy ko‘rsatkichlari aniqlangan;

o‘rganilgan baliqchilik hovuzlar algofloralari tarkibidagi 173 tur indikator-saprob turlar borligi aniqlangan, turli mavsumlardagi miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish natijasida har bir baliqchilik hovuzlarining ekologiya-sanitariya holati baholangan, saprolik indeksi aniqlangan hamda monitoring olib borish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Taksonlarning zamonaviy o‘rnini aniqlashda elektron bazalardan foydalanganligi, olingan natijalar nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi, davlat tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari hamda hududiy baliqsanoat uyushmalari faoliyatiga kiritilganligi hamda suvo‘tlarining fiksatsiyalangan namunalari “Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti gerbariysi” hamda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

kolleksiyalari fondida saqlanayotganligi, tadqiqot natijalari tegishli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus, Xo‘jayli va Taxiatosh tumanlarida joylashgan jami 7 ta baliqchilik xo‘jaliklari hovuzlari algoflorasi ilk bor inventarizatsiya qilinib, algoflora tarkibi taksonomik, floristik va ekologik tahlil qilinganligi, algoflora tarkibidagi turlar sonining optimal va minimal chegaralariga bevosita ta’sir etuvchi ekologik omillarning me’yoriy ko‘rsatkichlari mintaqaning xususiyatlariga bog‘liq ekanligi hamda algofloraning shakllanish tendensiyasiga hovuzlarning to‘yinish manbasi, grunti, suvining fizik-kimyoviy va boshqa ekologik xususiyatlari eng asosiy omil sifatidagi ta’siri ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘rganilgan baliqchilik hovuzlari algofloralari tarkibidagi suvning organik moddalar bilan ifloslanish darajasini belgilovchi indikator-saprob turlarning uchrash darajasi, miqdori, sifat ko‘rsatkichlari hamda saproblik indekslari ishlab chiqilgan tavsiyanomalar baliqchilik hovuzlarining ekologiya-sanitariya holatini mavsumiy monitoringini olib borishda dastur sifatida keng foydalanish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi baliqchilik hovuzlari suvning ekologik xususiyatlari: harorat, pH, mineralizatsiya, tiniqlik darajasi, biogen elementlar miqdori mavsumiy tahlil qilingan hamda ularning to‘yinish manbalariga bog‘liq holda algofloraning shakllanish xususiyatlari ochib berilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va Iqlim o‘zgarishi qo‘mitasining 2026-yil 20-fevraldagi №02-01/18-1-433-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, barcha o‘rganilgan baliqchilik xo‘jaligi hovuzlarining ekologik holatini baholash, mavsumiy monitoringni olib borish hamda hovuzlarni baliqlantirish muddat va me’yorlarini belgilash imkonini bergan;

har bir baliqchilik hovuzlari algoflorasi tarkibidagi indikator-saprob suvo‘tlarning xilma-xilligi, tarqalishi va saproblik darajalari hamda indeksi aniqlangan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi qo‘mitasining 2026-yil 20-fevraldagi №02-01/18-1-433 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘rganilgan baliqchilik hovuzlari suvini organik moddalar bilan ifloslanish darajasini belgilash hamda ekologiya-sanitariya holatini mavsumiy baholash imkonini bergan.

Nukus, Taxiatosh va Xo‘jayli tumanlarida joylashgan jami 7 ta baliqchilik xo‘jalik hovuzlarida sianofit va suvo‘tlarining turlar tarkibi, mavsumiy o‘zgarishi suvning ekologik xususiyatlariga bog‘liqligi aniqlangan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi “Qoraqalpoqbaliq” uyushmasining 2026-yil 13-fevraldagi № 1/765-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, baliqlarning o‘sishi, rivojlanishi va mahsuldorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega suvo‘tlarining mavsumiy rivojlanish dinamikasini aniqlash hamda suvning ekologik xususiyatiga bog‘liq holda monitoring qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy tadqiqot anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop qilishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 6 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Akvakultura sharoitidagi baliqchilik hovuzlari suvo'tlarini o'rganish istiqbollari"** deb nomlangan birinchi bobida xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan sun'iy suv havzalari, jumladan baliqchilik hovuzlari algoflorasi, uning taksonomik tarkibi, tahlili, floristik xususiyatlari, algofloraning shakllanishiga tashqi muhit omillarining roli, baliqchilik hovuzlari ekologik holatini monitoring qilishda indikator-saprob turlarning rolini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari keng tahlil qilingan. Xususan, Yevropa, Osiyo hamda MDH ning qator mamlakatlari olimlaridan A.Xabjokov (2021), L.Akter, M.A.Ullah (2022), A.R.Zafar (2024), G.E.Servetnik (2004), T.A.Chekrijeva, S.F.Komulaynen (2010), N.M.Lyalyuk va V.N.Klimyuk (2011), L.V.Vesnina, E.Yu.Mitrofanova, T.O.Lisitsina (2001-2002), E.G. Makeeva, Yu.V. Naumenko (2016), A.F.Kirilov (2016), Workagegn (2023), Jamil (2020) va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari baliqchilik hovuzlari algoflorasi tahlili, floraning shakllanishi hamda suvning ekologiya-sanitariya holatini keng qamrovli tadqiqiga bag'ishlangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi suv havzalari algoflorasining o'rganilishi 19 asrning 70 yillarida I.G.Borschov tomonidan boshlagan bo'lib, Orol dengizi akvatoriyadan suvo'tlarning 89 turini aniqlagan. Orol dengizi algofloraning o'rganishga oid tadqiqot N.Ostenfeld (1908) tomonidan davom ettirilgan. Orol dengizi va uning havzasidagi gidrobiologik tadqiqotlar L.S.Berg (1908), G.S.Karzinkin (1924), I.A.Kiselev (1927), A.L.Bening (1935), T.X.Shaposhnikova (1950), A.M.Muzaffarov (1960, 1965), N.K.Lukonina (1960), E.A.Yablonskaya (1964), L.O.Pichkili (1970, 1971), G.A.Ivanova (1963) A.K. Daribayev (1966), Yu.B.Okolodkov (1989) tomonidan turli yo'nalishlarda olib borilgan. Orol dengizi algoflorasini taksonomik, floristik o'rganish, suvo'tlarning aniqlagichi tayyorlash hamda suvo'tlar foydalanish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar A.E. Elmuratov tomonidan amalga oshirilgan (1970, 1997, 2001, 2003, 2004, 2005). Orol dengizi

atrofidagi ko‘llar va boshqa suv havzalari algoflorasini o‘rganishga bag‘ishlangan nisbatan yangi tadqiqotlar A.A.Elmuratova (2022-2024) ning ilmiy ishlarida kuzatiladi. Mazkur ilmiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi suv havzalardan baliqchilik hovuzlari algoflorasi intentarizatsiyalash, taksonomik, floristik va ekologik tahlil qilish hamda ekologiya-sanitariya holatini monitoring qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot olib borilgan joyning tabiiy-geografik tavsifi. Tadqiqot obyekti va metodlari”** nomli ikkinchi bobi o‘rganilgan baliqchilik xo‘jaliklarining joylashuvi, gidrobiologik va gidroekologik xususiyatlari batafsil yoritilgan. Nukus (Nukus AgroFish, Quvanchbek-Gulziba, Jenisbek-Gulshod), Xo‘jayli (Amur-sazan, Xo‘jayli baliq sanoat, Xo‘jayli baliqchilik) va Taxiatosh (Zamirbek-Taxiatosh) tumanlari hududidagi 7 ta baliqchilik xo‘jaliklarи algoflorasi o‘rganilgan (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot olib borilgan baliqchilik xo‘jaliklari xarita-sxemasi.

2022-2025 yillar davomida yuqorida nomlari keltirilgan baliqchilik xo‘jaliklari hovuzlaridan bahor, yoz va kuz oylarida marshrutli asosda 120 dan ortiq algologik namunalar yig‘ildi. Algologik namunalarni yig‘ish, fiksatsiyalash, etiketkalash va saqlashda chuchuk suv suvo‘tlarini yig‘ish va o‘rganish uslublaridan foydalanildi. Suvo‘tlar turlar tarkibini aniqlashda mahalliy va chet elda nashr etilgan aniqlagichlardan va monografiyalardan foydalanildi. Taksonlarning zamonaviy identifikatsiyasi http://algaebase.org (Guiry, Guiry, 2015) xalqaro bazasi yordamida amalga oshirildi. Taksonlarning umumiy tahlillari V.M.Shmidt uslublarida amalga oshirildi. Suvo‘tlarning ekologik va geografik tahlil qilishda bir qator mualliflarning keng foydalaniladigan ishlariga murojaat qilindi. Suvo‘tlarning miqdor darajalarining nisbiy shkalasi (1-9) bo‘yicha hujayralar hajmiga mos keladigan kategoriyalarga (birinchi va ikkinchi) 100 ta

ko‘rish maydoni sanalgandan so‘ng baholandi (A.S. Konstantinov 1986; Unifisirovannie metodi: 1966, 1977). Suv sifatini baholashda R.Kolkwitz, M.Marsson (1976) va R. Pantle, H. Buck (1955) formulasidan, suvning minerallashuvi va ifloslanish darajalari O.A.Alekin (1970), V.N.Jukinskiy va boshqalar (1981) klassifikasiyasidan foydalanildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Qoraqalpog‘iston baliqchilik hovuzlari algoflorasining taksonomik tahlili”** ga bag‘ishlangan. Qoraqalpog‘istonda o‘rganilgan baliqchilik hovuzlari algoflorasi tarkibida 237 tur aniqlandi. Ro‘yxatga olingan turlar 6 ta bo‘lim (Cyanoprocaryota, Dinophyta, Chrysophyta, Bacillariophyta, Euglenophyta, Chlorophyta), 13 ta ajdod, 22 ta qabila, 47 ta oila, 82 ta turkum mansub (1-jadval). Algoflora asosiy taksonlarining nisbati nomutanosib tarzda shakllanganligini ko‘rish mumkin. Algofloradagi jami oilalarning 41 tasini, ya’ni 87,23% 3 ta bo‘lim Bacillariophyta (15 ta oila, 31,91%), Chlorophyta (12 ta oila, 25,53%) va Cyanoprocaryota (14 ta oila, 29,79%) bo‘limlari qamrab olgan. Turkumlarning o‘zaro nisbatining tahliliga ko‘ra Bacillariophyta (33 ta turkum, 40,24%) va Chlorophyta (23 ta turkum, 28,04%) bo‘limi turkumlari barcha turkumlarni salmoqli qismiga (56 ta turkum, 68,29%) egalik qilganligini ko‘rsatadi. Algoflora tarkibidagi 217 ta, ya’ni 91,56% turlar 3 ta Bacillariophyta (126 tur, 53,16%), Chlorophyta (46 tur, 19,40%) va Cyanoprocaryota (45 tur, 18,99%) bo‘limlari mavjud. Keyingi o‘rinlarni Chlorophyta bo‘limi 46 turdan iborat bo‘lib, jami algofloraning 19,40% ulushga egalik qildi.

1-jadval

Baliqchilik hovuzlari algoflorasining taksonomik tarkibi.

Suvo‘tlari bo‘limi	**Taksonomik birliklar soni**					
	Ajdod	Qabila	Oila	Turkum	Tur	% da
Cyanoprocaryota	3	4	14	17	45	18,99
Dinophyta	1	2	3	4	9	3,80
Chrysophyta	1	1	2	2	5	2,11
Bacillariophyta	2	6	15	33	126	53,16
Euglenophyta	1	1	1	3	6	2,53
Chlorophyta	5	8	12	23	46	19,41
Jami:	**13**	**22**	**47**	**82**	**237**	**100**

Cyanoprocaryota bo‘limi 45 turdan iborat bo‘lib, u algofloraning 18,99% tashkil etadi. Euglenophyta bo‘limining 6 turi aniqlandi va 2,53% ni tashkil etdi. Dinophyta bo‘limining 9 turi aniqlandi va 3,80% ni tashkil etdi Turlar soni jihatidan eng kam turlar Chrysophyta bo‘limida aniqlangan bo‘lib, ular 5 turdan iborat va jami algofloraning 2,11% ga tengdir.

Polimorf taksonlar (oila, turkum) tahlili. Algofloradagi yetakchi taksonlarni tahlil qilish orqali muayyan hududlardagi suvo‘tlar florasining shakllanish tendensiyasini ochib berish imkoniyatlari oshadi. Tadqiqotlar

davomida o‘rganilgan baliqchilik hovuzlari algoflorasi tarkibida yetakchi oila va turkumlarni tahlilini amalga oshirish natijasida boshqa hududlardagi baliqchilik hovuzlariga qaraganda o‘ziga xoslik jihatlarini namoyon etdi. Tahlillar davomida polimorf oilalarni turlar soniga ko‘ra guruhlarga ajratilganda, boshqa suv havzalarida uchramaydigan holat mavjudligi aniqlandi. Bunda 20 va undan ko‘p bo‘lgan turlarni o‘z ichiga olgan oilalar yuqori polimorf, 12-18 turga ega oilalar o‘rtacha polimorf, 5-10 turga ega oilalar polimorf guruhlarga ajratildi. Tadqiqot olib borilgan baliqchilik hovuzlari algoflorasi tarkibida 5 va undan ortiq turlarni o‘z ichiga olgan oilalar soni 18 tani tashkil etdi. Bu oilalar jami 174 turni o‘zida jamlagan bo‘lib, butun algofloraning 73,42% tashkil etadi. Polimorf hisoblangan oilalarning 4 tasi sianofitlarga: Microsystidaceae (5 tur, 2,87%), Gloeocapsaceae (5 tur, 2,87%), Anabaenaceae (8 tur, 4,60%), Oscillatoriaceae (10 tur, 5,75%), 8 tasi diatomlarga: Aulacoseriaceae (5 tur, 2,87%), Fragilariaceae (18 tur, 10,34%), Naviculaceae (44 tur, 25,29%), Achnanthaceae (12 tur, 6,90%), Eunotiaceae (7 tur, 4,21%), Cymbellaceae (8 tur, 4,81%), Nitzschiaceae (9 tur, 5,42%), Surirellaceae (6 tur, 3,61%), 1 tasi evglenalarga: Euglenaceae (6 tur, 3,61%) hamda 5 tasi yashil suvo‘tlarga mansub: Hydrodictiaceae (5 tur, 3,01%), Oocystaceae (5 tur, 3,01%), Scenedesmaceae (6 tur, 3,61%), Closteriaceae (6 tur, 3,61%), Desmediaceae (9 tur, 5,42%). Polimorf oilalar orasida diatomlar yaqqol yetakchilik qilgan. Bu Markaziy Osiyoda deyarli barcha suv havzalari uchun xos xususiyat hisoblanib, suvning tarkibida minerallar miqdorining ko‘pligi bilan izohlash mumkin. Keyingi o‘rinlarni yashil, sianofitlar egalladi. Evglenalardan yagona Euglenaceae oilasida jami 6 tur uchradi. Algoflora tarkibidagi jami 47 ta oiladan 18 tasi polimorf hisoblanadi. Bu jami algofloraning 36,17%, ya’ni 1/3 qismidan ko‘prog‘ini tashkil etadi va algofloraning 73,42% ga egalik qilishi bilan xarakterlanadi.

Polimorf turkumlarni tahlil qilishda 4 va undan ortiq turlarni o‘z ichiga olgan turkumlar ajratildi. Tadqiqot olib borilgan baliqchilik hovuzlari algoflorasi tarkibidagi 20 ta polimorf turkum 137 turni o‘zida birlashtirgan. Bular jami algofloradagi turlarning 57,80% o‘z ichiga oladi. Polimorf turkumlarning 4 tasi sianofitlarga: *Merismopedia* (4 tur, 2,92%), *Gloeocapsa* (5 tur, 3,65%), *Oscillatoriya* (8 tur, 5,83%), *Anabaena* (8 tur, 5,83%), 1 tur dinofitlarga: *Cryptomonas* (4 tur, 2,92%), 11 tur diatomlarga: *Aulacoseria* (5 tur, 3,65%) *Fragilaria* (9 tur, 6,57%), *Synedra* (6 tur, 4,38%), *Navicula* (23 tur, 16,78%), *Pinnularia* (8 tur, 5,83%), *Cocconeis* (4 tur, 2,92%), *Achnanthes* (7 tur, 5,11%, *Eunotia* (7 tur, 5,11%), *Cymbella* (6 tur, 4,38%), *Nitzschia* (9 tur, 6,57%), *Surirella* (4 tur, 2,92%), qolgan 4 turkum yashil suvo‘tlarga mansub: *Oocystis* (4 tur, 2,92%), *Scenedesmus* (6 tur, 4,38%), *Closterium* (6 tur, 4,38%), *Euastrum* (4 tur, 4,38%). Polimorf turkumlar tahlilida ham turlarni qamrab olinishi bo‘yicha teng taqsimlanish mavjudligi kuzatildi. Shuni e’tiborga olgan holda, 20 va undan ortiq turlarni o‘z ichiga olgan turkumlar yuqori polimorf, 7-9 turga ega turkumlar polimorf, hamda 4-6 turga ega turkumlar kam polimorf guruhlarga ajratildi. Dastlabki 3 ta oila diatomlarga tegishli, hamda ushbu polimorf oilalarning yarmidan ko‘pini diatomlar tashkil etadi. Keyingi 3 ta oilaning 2 tasi sianofitlarga mansub bo‘lib, bu oila taksonlarining tarqalishi va rivojlanishini uchun qulay

sharoit mavjudligini ko‘rsatadi. Algoflora tarkibidagi jami 82 ta turkumdan 20 (24,39%) tasi polimorf hisoblanadi. Bu algoflorani 57,80% ni o‘z ichiga olishi bilan xarakterlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi baliqchilik hovuzlari algoflorasi tarkibida 2-4 turni o‘zi ichiga olgan kam polimorf oilalar soni 19 tani tashkil etgan bo‘lib, ularning 5 tasi sianofitlarga (5 ta turkum, 12 tur), 2 tasi dinofitlar (2 ta turkum, 8 tur), 2 tasi oltin tusli (2 ta turkum, 5 tur), 5 tasi diatomlarga (5 ta turkum, 15 tur) hamda 5 tasi yashil suvo‘tlarga (5 ta turkum, 13 tur) mansub. Ushbu kam polimorf oilalar jami algofloradagi oilalarning 17,07% ni hamda jami turlarning 12,23% ni o‘z ichiga oladi. Monotip oilalar 10 tani tashkil etadi, bu jami algoflora tarkibidagi oilalarning 21,28% va turlarni 4,22% ni o‘z ichiga oladi. Kam polimorf turkumlar (2-3 turga ega) 28 tani tashkil etib, 65 turni o‘z ichiga oladi. Bunda algofloradagi jami turkumlarning 34,14% ni, bular jami turlarning 27,42% ni o‘z ichiga oladi. Monotip turkumlar soni 35 ta bo‘lib, algofloradagi jami turkumlarning 42,68% ni egallagan bo‘lib, bular jami turlarning 14,76% ni tashkil etadi (2-jadval). Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi o‘rganilgan baliqchilik xo‘jaliklari algoflorasi tarkibi, undagi taksonlar nisbatlari o‘ziga xos taqsimlangan. Boshqa hududlardagi shu tipdagi baliqchilik hovuzlari algofloralaridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu hududdagi suv havzalari o‘zining to‘yinish manbalari hamda suvning bir qator ekologik (minerallashuvi, suv va havo harorati, tiniqlik darajasi, pH va kimyoviy tarkibi) omillarining o‘zigachaligi bilan bog‘liq.

2-jadval

Algoflorani polimorf va monotip taksonlarining tahlili.

Polimorf oilalar (≥5)			**Polimorf turkumlar (≥4)**		
18 oila	174 tur	73,42%	20 turkum	137 tur	57,81%
Kam polimorf oilalar (2-4 tur)			**Kam polimorf turkumlar (2-3tur)**		
19 oila	53 tur	22,36%	28 turkum	65 tur	27,43%
Monotip oilalar (1 tur)			**Monotip turkumlar (1 tur)**		
10 oila	10 tur	4,22%	34 turkum	35 tur	14,76%
			82	**237**	**100**

Dissertatsiya **“Algofloraning floristik tahlili va uning shakllanish xususiyatlari”** nomli to‘rtinchi bobida keltirilishicha, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi o‘rganilgan baliqchilik xo‘jaliklari hovuzlari algoflorasi taksonomik tahlil qilinganda, ularda suvo‘tlar taksonlari notekis taqsimlanganligili ma’lum bo‘ldi (3-jadval). Qoraqalpog‘iston baliqchilik hovuzlari algofloraning turlar xilma-xilligi uning qancha vaqtdan beri faoliyat yuritayotgani, hovuzlar suvining turg‘unligi, grunt tuzilishi, qirg‘oqlarida yuksak o‘simliklarning qoplanish darajasi, hovuzlarning chuqurligi, to‘yinish manbalariga hamda suvning ekologik xususiyatlari (harorat, tiniqlik darajasi, mineralizatsiya, pH, biogen moddalar miqdori) kabi bir qator omillarga bog‘liq. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududi algoflorasida tadqiq etilgan baliqchilik xo‘jaliklarining turlar tarkibi

bo‘yicha qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, to‘yinish manbasi bir xil, hududiy jihatdan bir-biriga yaqin hamda ekologik xususiyatlari o‘zaro o‘xshash baliqchilik hovuzlari algoflorasi ham nisbatan yaqin bo‘lishi ma’lum bo‘ldi.

3-jadval

Baliqchilik xo‘jaliklari hovuzlari algoflorasining taksonomik tarkibi.

Suv havzalari	**Bo‘lim**	**Sinf**	**Tartib**	**Oila**	**Turkum**	**Turlar soni**	**% da**
Xo‘jayli baliq sanoat	6	13	21	41	65	144	60,76
Amur-sazan	6	12	19	42	64	141	59,49
Nukus-AgroFish	6	13	21	43	69	141	59,49
Quvonbek-Gulziba	6	11	17	36	61	119	50,21
Xo‘jali baliqchilik	6	12	19	39	56	110	46,41
Jenisbek-Gulshod	6	11	17	37	53	92	38,82
Zamirbek-Taxiatosh	5	8	16	32	48	82	34,60

Jumladan, eng yaqin o‘xshashliklar Amur-sazan va Nukus-AgroFish (0,673), Quvonchbek-Gulziba, Jenisbek-Gulshad (0,671), Xo‘jayli hamda Xo‘jayli baliq sanoat (0,668) baliqchilik hovuzlari florasi o‘zaro o‘xshashligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu baliqchilik xo‘jaliklari hovuzlari yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, asosan bir manbadan to‘yinishi, hududiy jihatdan o‘zaro yaqinligi hamda algofloraning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarning ham o‘xshash bo‘lishi asosiy sabab bo‘lgan (2-rasm).



2-rasm. Baliqchilik xo‘jaliklari algoflorasining o‘xshashlik koeffitsienti.

Izoh.: *1- Xo‘jayli, 2-Xo‘jayli baliq sanoat, 3- Zamirbek-Taxiatosh, 4-Amur-sazan, 5-Nukus-AgroFish, 6-Quvonchbek-Gulziba, 7-Jenisbek-Gulshad.*

O‘rganilgan baliqchilik xo‘jaliklari orasida Zamirbek-Taxiatosh algoflorasi boshqa baliqchilik hovuzlari algoflorasidan sezilarli farq qilgan. Mazkur baliqchilik xo‘jaliklari hovuzlari asosan hududdagi Taxiatosh IESning sovutish inshooti kanalidan chiqadigan suvdan to‘yinadi. Shuning uchun bu kanal suvi suvo‘tlarga nihoyatda kambag‘al. Undan to‘yinadigan hovuzlar algoflorasi asosan atrofdan tushadigan boshqa kichik ariqlar, zovurlar va tuproq suvo‘tlari hisobiga shakllangan.

Baliqchilik hovuzlarining ekologik xususiyatlari, suvining to‘yinish xarakteri, iqlimi, tuproq-grunt sharoitlar bir-biridan sezilarli farq qilinishini hisobga olgan holda, har bir hududdagi baliqchilik hovuzlarga alohida yondashuvni talab etadi. Baliqchilik hovuzlarining ekologik xususiyatlari, suvining to‘yinish xarakteri, iqlimi, tuproq-grunt sharoitlar bir-biridan sezilarli farq qilinishini hisobga olgan holda, har bir hududdagi baliqchilik hovuzlarga alohida yondashuvni talab etadi. Tadqiqot olib borilgan hududdagi baliqchilik xo‘jaliklari algoflorasining shakllanishi ko‘p jihatdan Amudaryo daryosi suvi tarkibidagi suvo‘tlarga uzviy bog‘liq hisoblanadi.

Algofloralardagi taksonlar nisbati tahlili. Tadqiqotlar davomida o‘rganilgan baliqchilik hovuzlari algoflorasidagi taksonlarning miqdoriy nisbatlari tahlil qilindi. Bu tahlillar har bir suv havzasi uchun o‘tkazilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, muayyan suv havzalarining ekologik xususiyatlari o‘ziga xos bo‘lib, bu mavjud algofloraning shakllanishini tushunish imkoniyati beradi. O‘rganilgan baliqchilik xo‘jaliklari hovuzlari algoflorasi tarkibidagi turlar soni bo‘yicha Xo‘jayli baliqchilik sanoat baliqchilik hovuzlari yetakchilik qilgan bo‘lib, jami algofloraning 60,75% ni o‘z ichiga oladi. Keyingi o‘rinlarda Amur-sazan (141 tur-59,5%) hamda Nukus AgroFish (141 tur-59,5%) bir xil nisbatga ega bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha eng kam Zamirbek-Taxiatoshda (82 tur-34,6%) ko‘zatildi. Turkumlar nisbati bo‘yicha yetakchi Nukus AgroFish (69 tur-84,1%) hisoblanadi. Keyingi o‘rinlarni Xo‘jayli baliq sanoat (65 tukrum-79,3%) va Amur-sazan (64 turkum-78,04%) egallaydi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha eng kam miqdor Zamirbek-Taxiatoshda (48 turkum-58,5%) kuzatildi. Oilalar nisbatining tahlili ko‘ra eng boy Amur-sazan (43/91,4%) hamda Nukus AgroFish (43/91,4%) bir xil nisbatlarga ega bo‘ldi. Keyingi o‘rinlarda Xo‘jayli baliqchilik sanoati (41 oila-87,2%) va Xo‘jayli (39 oila-82,9%) egalladi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha eng kam miqdorni Zamirbek-Taxiatoshda (32 oila-68,1%) kuzatildi. Algofloradagi asosiy taksonlar hisoblangan tur, turkum va oilalarning nisbatlari bo‘yicha tahlil natijalari ko‘ra, Xo‘jayli baliqchilik sanoati, Amur-sazan, Nukus AgroFish yetakchilik qilgan bo‘lsa, bu ko‘rstkichlar bo‘yicha eng kam Zamirbek-Taxiatosh namoyon etdi. Oilalardagi turlarning o‘rtacha soni ko‘rsatkichi bo‘yicha ham Xo‘jayli baliqchilik sanoati (3,50) yaqqol etakchilik qildi. Quvonchbek-Gulziba (3,30) va Nukus AgroFish (3,27) keyingi o‘rinlarni egalladi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha eng kam miqdor Amur-sazanda (2,28) kuzatildi. Oilalardagi turkumlarning o‘rtacha soni bo‘yicha Quvonchbek-Gulziba (1,69) yaqqol etakchilik qildi. Keyingi o‘rinlarni Nukus AgroFish (1,60) egallagan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich bo‘yicha eng kam miqdor Xo‘jayli (1,43) va Jenisbek-Gulshadda (1,43) kuzatildi. Asosiy taksonlarning

umumiy nisbatiga ko‘ra yetakchi o‘rinni Xo‘jayli baliqchilik sanoat 2,43 nisbati bilan yaqqol yetakchilik qildi. Keyingi o‘rinlarni Quvonchbek-Gulziba (2,31) Nukus AgroFish (2,30) egalladi. Eng past ko‘rsatkich Jenisbek-Gulshad (1,87) da kuzatildi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Xo‘jayli algoflorasi boshqa hovuzlarga nisbatan ancha barqaror, algofloraning shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan barcha ekologik omillar me’yor darajasida mavjud. Aksincha, Jenisbek-Gulshadda esa bu omillar mo‘tadil emas.

